NUTQIY AKTLARNING LINGVISTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI VA KOMMUNIKATIV MAQSAD IFODASI

Israilova Maftuna Ulug‘bek qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti
Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nutqiy aktlar nazariyasining lingvistik pragmatikadagi o‘rni, mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Nutqiy aktlarning lokutiv, illokutiv va perlokutiv bosqichlari, ularning kommunikativ maqsad bilan bog‘liqligi hamda performativlarning grammatik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, nutqiy aktlarning shakllanishi va ifodalanishiga ta’sir etuvchi lisoniy va nolisoniy omillar, so‘zlovchining kommunikativ niyati, nutqiy vaziyat va kontekstning ahamiyati ko‘rib chiqilgan. J.Ostin va Z.Vendlerning nutqiy aktlar nazariyasiga oid qarashlari asosida nutqiy birliklarning ochiq va yashirin mazmunni ifodalash imkoniyatlari izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *pragmalingvistika, nutqiy akt, lokutiv akt, illokutiv akt, perlokutiv akt, performativ, kommunikativ maqsad, kommunikativ niyat, kontekst, eksplitsitlik, implitsitlik.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются роль и значение теории речевых актов в лингвистической прагматике, а также её основные особенности. Анализируются локутивный, иллокутивный и перлокутивный уровни речевого акта, их связь с коммуникативной целью и грамматические особенности перформативных высказываний. Особое внимание уделяется языковым и неязыковым факторам, влияющим на формирование и выражение речевых актов, а также роли коммуникативного намерения говорящего, речевой ситуации и контекста. На основе взглядов Дж.Остина и З.Вендлера раскрываются возможности языковых единиц выражать эксплицитное и имплицитное содержание.*

Ключевые слова: *прагмалингвистика, речевой акт, локутивный акт, иллокутивный акт, перлокутивный акт, перформатив, коммуникативная цель, коммуникативное намерение, контекст, эксплицитность, имплицитность.*

Abstract. *This article examines the role and significance of speech act theory in linguistic pragmatics, focusing on its main concepts and distinctive features. It*

analyzes the locutionary, illocutionary, and perlocutionary dimensions of speech acts, their relationship with communicative purposes, and the grammatical characteristics of performative utterances. Particular attention is paid to the linguistic and non-linguistic factors influencing the formation and expression of speech acts, as well as the importance of the speaker's communicative intention, speech situation, and context. Drawing on the theoretical perspectives of J.L.Austin and Z.Vendler, the article explores how linguistic units convey explicit and implicit meanings.

Keywords: *pragmalinguistics, speech act, locutionary act, illocutionary act, perlocutionary act, performative, communicative purpose, communicative intention, context, explicitness, implicitness.*

Kirish. "Nutqiy akt – ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma'nosining so'zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan boyitilishi, idrok etilishi natijasidir"[11].

Nutqning qanday vaziyatda yuzaga kelishi va nutq ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat so'zlovchi fikrlarining ifodalanish shakliga, ya'ni ularning eksplitsit yoki implitsit tarzda bayon etilishiga ta'sir ko'rsatadi. So'zlovchining o'zaro nutqiy faoliyati jarayonida turli mazmunni ifodalovchi nutqiy aktlar shakllanadi. Bunda so'zlovchi tomonidan tanlangan so'zlar o'zining asosiy ma'nosidan tashqari, qo'shimcha mazmun va ma'no nozikliklarini ham ifodalashi mumkin.

Nutqiy akt tadqiqiga ko'plab olimlar o'z fikrlarini berib o'tgan. Jumladan, V.Gumbolt, Sh.Balli, L.P.Yakubinskiy, M.M.Baxtinlar. Bu masaladagi dastlabki qarashlar Dj.Ostin, Dj. R.Syorl va boshqa olimlarning ishlarida ko'rilib chiqilgan.

Dj.Ostin nutqiy aktlarni kommunikativ maqsadlariga ko'ra verdikativ, ekzersitivlar, bexabitivlar, komissiv, ekspozitiv atamalari bilan nomlab, har qaysini alohida izohlaydi[12].

Lingvistik pragmatikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan nutqiy aktlar nazariyasi murakkab mazmun va o'ziga xos tuzilishga ega. Ushbu nazariyada nutqiy faoliyatning alohida o'rganiladigan eng kichik birligi nutqiy akt hisoblanadi. Nutqiy akt subyekti bo'lgan so'zlovchi o'z fikrlarini, odatda, adresatning ularni to'g'ri anglab, o'zlashtirishiga mos ravishda ifodalaydi. So'zlovchi tomonidan

[11] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, ЎМЭ. 2008. – Б. 72-73.
[12] Остин Дж.Л. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистнке. – Вып. 17: Теория речевых актов. – М., 1986. – С. 119.

bayon etilgan fikr bir vaqtning o‘zida ham nutqiy aktning natijasi, ham muayyan kommunikativ maqsadga erishish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Nutqiy akt muayyan tarkibiy bosqichlar va o‘ziga xos mezonlarga ega. U uch asosiy bosqichdan tashkil topadi: lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar.

Lokutiv nutqiy akt – talaffuz akti, til birliklarining grammatik qoidalar bo‘yicha tuzilishi, fikrning obyektiv mazmuni. Bunday nutqiy aktlar suhbatdosh tomonidan reaksiya talab qilmaydi. Illokutiv nutqiy akt – lokutiv aktning ma’lum mo‘ljal bilan yo‘naltirilishi, kommunikativ maqsad ifodalanishi.

Perlokutiv akt – nutqning tinglovchi fikri va his-tuyg‘ulariga hamda xulqiga ta’siri[13].

Performativlarning grammatik tuzilishi ham o‘ziga xosdir. Bu gaplarda fe’l, odatda, birinchi shaxs hozirgi zamon shaklida va ushbu fe’lning birinchi aktanti deiktik olmoshning birinchi shaxs birligi, ikkinchi aktant esa deiktik olmoshning ikkinchi shaxs birlik yoki ko‘pligi vositasida ifodalanadi. Ushbu qolipda tuzilgan performativ namunaviy tuzilma bo‘lib, uning to‘liq ko‘rinishda qo‘llanishi kam uchraydigan holdir[14].

Ko‘p hollarda, birinchi aktant, ya’ni so‘zlovchini ifodalovchi birlik tushirib qoldiriladi: I promise you to help – I promise to help. O‘zbek va rus tillarining grammatik tizimi performativ tuzilmalarda aktantlarning tushirib qoldirilishiga imkon beradi. Masalan: “Обещаю помочь”; “Yordam berishga va’da beraman”; “Прошу вас подождать”; “Biroz kutishingizni so‘rayman”; “Предупреждаю, что будет опасно”; “Xavfli bo‘lishidan ogohlantiraman”. Bundan tashqari, uchinchi aktant, ya’ni propozitsiya ham tushirib qoldirilishi mumkin. Bunga “Kechirasiz”, “Tabriklayman”, “Va’da beraman” kabi ifodalar misol bo‘ladi.

Pragmalingvistika verbal va noverbal vositalar orqali ifodalangan ma’no va mazmun komponentlarini tadqiq qiladi. Bu soha nazariy masalalarga oid sof lisoniy tadqiqotlardan muallif munosabatining nutqiy aktlar orqali aks etishini jonli muloqot jarayonida o‘rganishi bilan ajralib turadi. Odatda, har qanday funksional uslubga taalluqli matnda muallifning munosabati o‘z ifodasini topadi. Bu munosabat so‘zlovchi nutqiga xos buyruq, iltimos, va’da, ogohlantirish, minnatdorlik kabi mazmuniy strukturalar bilan to‘ldiriladi. Bularning barchasi nutqiy aktlar nazariyasiga taalluqli masalalar ekanligi bilan xarakterlidir[15].

[13] Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. – Samarqand, SamDU. 2013. – B. 83.
[14] **Сафаров Ш. Прагмалингвистика.** Монография. – Тошкент. 2008, – Б. 88.
[15] Ҳакимов М., Газиева М. Прагмалингвистика асослари / М.Ҳакимов; масъул муҳаррир Н.Маҳмудов; Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Фарғона давлат университети, – 2020. – Б. 122.

Oksford maktabi olimlarining ilmiy tadqiqotlari natijasida nutqiy akt tushunchasi kommunikatsiyaning verbal birligi sifatida tilshunoslik fanining tadqiqot obyektiga aylandi[16].

Darhaqiqat, tilshunoslikning turli yo‘nalishlarida nutqiy aktlar o‘zaro muloqot jarayonida yuzaga keladigan hodisa sifatida talqin qilindi. Ular nutqning alohida birligi sifatida e’tirof etilib, so‘zlovchining kommunikativ niyatini aks ettiruvchi mazmuniy birlik ekanligi qayd etildi. Shuningdek, nutqiy aktlar gap va matnning yashirin, ya’ni implitsit mazmuniy tuzilishini o‘rganish doirasida ham tadqiq etildi.

Nutqiy aktlarni tasniflashda quyidagi mezonlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Nutqiy muloqot jarayonida kommunikativ niyat va maqsadning namoyon bo‘lishi;
2. Kommunikatsiya jarayoniga xos bo‘lgan nutqiy vaziyat;
3. Nutq ishtirokchilarining kayfiyatini aks ettiruvchi psixologik holat;
4. Nutqiy muloqot ishtirokchilari;
5. Muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi;
6. Kommunikatsiya ishtirokchilarining manfaatdorlik darajasi;
7. Muloqot ishtirokchilarining ichki va tashqi imiji;
8. Nutqiy muloqot ishtirokchilarining bilim va ko‘nikmalari;
9. Fikrning oshkora yoki yashirin tarzda ifodalanishi;
10. Notiqlik mahorati;
11. Nutqiy etiket qoidalari.

Yuqorida sanab o‘tilgan obyektiv va subyektiv, lisoniy hamda nolisoniy omillar nutqiy aktlarning shakllanishi va ifodalanishida muhim o‘rin tutadi.

Z.Vendler ham boshqa tadqiqotchilar singari J.Ostin tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar tasnifini chuqur o‘rgangan. Uning qarashlariga ko‘ra, muloqot jarayonida so‘zlovchilar bir-birlariga axborot yetkazish, maqtanish, qo‘rqitish, qo‘llab-quvvatlash va hurmat bildirish kabi turli kommunikativ harakatlarni amalga oshiradilar. Bunday mazmunlar nutqda vaziyatga qarab ba’zan ochiq, ya’ni eksplitsit, ba’zan esa yashirin, ya’ni implitsit shaklda ifodalanadi.

Z.Vendler ushbu hodisani izohlar ekan, nutqiy aktlarning ochiq ifoda shakllari performativ xususiyatga ega bo‘lishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, shunchaki gapirish yoki “Men tasdiqlayman”, “Men qo‘rqitaman” kabi jumlalarni qo‘llashning

[16] Дорошенко А.В. Побудительные речевые акт в косвенных контекстах. //В кн.: Логический анализ языка. Проблемы интенсиональных и прагматических контекстов. – М., 1989. – С. 7

o‘zi muayyan illokutiv maqsadni amalga oshirish uchun yetarli emas. Bunda so‘zlovchining kommunikativ niyati va nutqiy vaziyat muhim ahamiyat kasb etadi[17].

Olim nutqiy aktning illokutiv mazmunini tinglovchida muayyan ruhiy holatni yuzaga keltirishga qaratilgan so‘zlovchi niyati bilan bog‘laydi. Masalan, “Men o‘sha yerda bo‘laman” jumlasi orqali so‘zlovchi tinglovchida o‘z so‘zlariga ishonch hosil qilish istagini bildiradi va shu orqali tasdiq aktini yuzaga keltiradi. Agar ushbu fikr tinglovchi tomonidan ishonch bilan qabul qilinib, muayyan majburiyatni anglatadigan bo‘lsa, u va’da akti sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Agar so‘zlovchining maqsadi suhbatdoshda qo‘rquv yoki xavotir uyg‘otishdan iborat bo‘lsa, mazkur ifoda ogohlantirish akti vazifasini bajaradi.

Z.Vendlerning ta’kidlashicha, nutqiy aktning qanday mazmun anglatishi ko‘p jihatdan kontekst va muloqot sharoitiga bog‘liq. Shu bois so‘zlovchi o‘z niyatining tinglovchi tomonidan aniq tushunilishini istaganida, tasdiqlash, va’da berish yoki ogohlantirish kabi kommunikativ maqsadlarni ochiq ifodalovchi performativ shakllardan foydalanadi.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy aktlar lingvistik pragmatikaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, so‘zlovchining kommunikativ maqsadi va niyatini ifodalashga xizmat qiladi. Ularning shakllanishi nutqiy vaziyat, kontekst hamda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlarga bog‘liq. Nutqiy aktlarning lokutiv, illokutiv va perlokutiv bosqichlari fikrning ifodalanishi va tinglovchiga ta’sirini belgilaydi. Shuningdek, nutqiy aktlarni o‘rganish til birliklarining ochiq va yashirin ma’nolarini anglash, muloqot jarayonining mazmun-mohiyatini chuqurroq tushunishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Остин, Дж. Л. Слово как действие / Дж. Л. Остин // Новое в зарубежной лингвистике. – Москва, 1986. – Вып. 17 : Теория речевых актов. – С. 119.

2. Pardayev, Z. Pragmatik lingvistika / Z. Pardayev. – Samarqand : SamDU, 2013. – B. 105.

3. Сафаров, Ш. Прагмалингвистика / Ш. Сафаров. – Тошкент : Узбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 286 б.

4. Ҳакимов, М. Прагмалингвистика асослари / М. Ҳакимов, М. Газиева ; масъул муҳаррир Н. Маҳмудов ; Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Фарғона давлат университети. – 2020. – 481 б.

[17] Вендлер З. Иллокутивное самоубийство. //НЗЛ. Вып. XVI. – М., 1985.

5. Дорошенко, А. В. Побудительные речевые акт в косвенных контекстах / А. В. Дорошенко // Логический анализ языка : Проблемы интенсиональных и прагматических контекстов. – Москва, 1989.

6. Вендлер, З. Иллокутивное самоубийство / З. Вендлер // Новое в зарубежной лингвистике. – Москва, 1985. – Вып. XVI.